



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **15,8** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,6** mingtaga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **15,6** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-martida **1114** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **83** taga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar 1- aprel holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
17433	Jizzax viloyati	15807
4705	Jizzax sh	4269
655	Arnasoy	577
1166	Baxmal	1070
1638	G'allaorol	1478
2353	Sharof Rashidov t.	2082
730	Do'stlik	605
1481	Zomin	1344
952	Zarbdor	852
643	Zafarobod	574
501	Mirzacho'l	494
844	Paxtakor	834
1375	Forish.	1224
390	Yangiobod	404

2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **15 807** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1114** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Jizzax shahrida **4269** tani yoki jamiga nisbatan **27,0 %** ni tashkil etdi.

1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Jizzax shahar	23,2
Arnasoy	22,6
Baxmal	12,9
G'allaorol	13,6
Sharof Rashidov	12,3
Do'stlik	14,7
Zomin	13,0
Zarbdor	18,3
Mirzacho'l	18,6
Zafarobod	17,5
Paxtakor	14,8
Forish	16,0
Yangiobod	18,9

Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1 aprel holatiga, birlikda



2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **15,6** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **1,4** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida **23,2** birlik, Arnasoy tumanida **22,6** birlik, Yangiobod tumanida **18,9** birlik, Mirzacho'l tumanida **18,6** birlik, Zarbdor tumanida **18,3** birlik, Zafarobod tumanida **17,5** birlikka yetdi.


* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Jizzax shahri
– 23,2 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Zafarobod tumani
– 17,5 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Sharof Rashidov tumani
– 12,3 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahri **23,2** birlik, Arnasoy tumanida **22,6** birlik Yangiobod tumanida **18,9** birlik, Mirzacho'l tumanida **18,6** , birlik, Zarbdor tumanida **18,3** birlik, Zafarobod tumanida **17,5** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- aprel holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Yangiobod tumani

18,9

Zarbdor tumani

18,3

Mirzacho'l tumani

18,6

Jizzax shahri

23,2

Arnasoy tumani

22,6

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

224	Jizzax shahri	241
55	Arnasoy	57
47	Baxmal	98
158	G'allaorol	122
104	Sharof Rashidov	117
23	Do'stlik	28
120	Zomin	105
77	Zarbdor	81
40	Zafarobod	42
33	Mirzacho'l	42
42	Paxtakor	51
78	Forish	86
30	Yangiobod	44

2024- yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Jizzax shahri – **21,6** %, G'allaorol – **11,0** %, Sharof Rashidov – **10,5** %, Zomin – **9,4** %, Forish – **7,7** %, Baxmal – **8,8** %, Zarbdor – **7,3** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 321 ta, sanoatda 320 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 230 ta yangidan tashkil etilgan.

Tumanlar va shahar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahrida 241 ta, G'allaorol tumanida 122 ta, Sharof Rashidov 117 ta va Zomin tumanida 105 ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-marti davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-mart oylari davomida jami **6601** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **1729** (yoki **26,2 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **1398** (yoki **21,2 %**) ta, sanoat sohasida – **1192** (yoki **18,1 %**) ta, xizmatlar sohasida – **981** (yoki **14,9 %**) ta, va qurilish sohasida – **320** (yoki **4,8 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2023- y. ■ 2024- y.




■ 2023- y. ■ 2024- y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAXMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-mart oylarida), % da

2024- yilning yanvar-martida YAXM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **65,6 %** ni tashkil qildi




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **99,1 %** ni, yo'lovchi aylanmasida **97,8 %** ni, yo'lovchi tashishda **95,3 %** ni, qurilishda **93,4 %**, yuk aylanmasida **97,8 %** ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Jizzax shahri	396,3
Arnasoy	40,9
Baxmal	30,3
G'allaorol	25,0
Sharof Rashidov	149,3
Do'stlik	26,9
Zomin	63,2
Zarbdor	36,7
Zafarobod	34,0
Mirzacho'l	61,4
Paxtakor	60,3
Forish	141,6
Yangiobod	26,5

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1092,3** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (**396,3** mlrd. so'm), Sharof Rashidov (**149,3** mlrd. so'm), Forish (**141,6** mlrd. so'm), Arnasoy (**40,9** mlrd. so'm) Paxtakor (**60,4** mlrd. so'm), va Zomin (**63,2** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Yangiobod tumani (**26,5** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so‘m

2024- yil yanvar-martida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 22,3 % ni tashkil etdi.




2024- yilning yanvar-martida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Arnasoy , Baxmal, Yangiobod, Mirzacho‘l tumanlarida (100,0 %), Sharof Rashidov tumanida (99,9 %) Forish tumanida (99,7 %), tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Yangiobod	6,7	86,1
Forish	19,4	90,3
Paxtakor	45,8	97,7
Mirzacho'l	10,5	66,5
Zafarobod	15,9	91,4
Zarbdor	20,8	93,9
Zomin	77,4	88,4
Do'stlik	23,2	89,5
Sharof Rashidov	127,3	100,0
G'allaorol	40,5	90,1
Baxmal	29,7	94,7
Arnasoy	14,5	90,8
Jizzax sh.	338,4	90,8

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2024- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **770,2** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **93,4** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati yanvar-mart oylarida **116,4** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (**338,4** mlrd. so'm), Sharof Rashidov (**127,3** mlrd. so'm), Zomin (**77,4** mln.so'm) G'allaorol (**40,5** mlrd so'm) Paxtakor (**45,8** mlrd. so'm), Forish (**19,4** mlrd. so'm) hamda Baxmal (**29,7** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **3433,9** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **74,7 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati **214,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Sharof Rashidov (**779,3** mlrd. so'm), Forish tumani (**708,8** mlrd. so'm), Jizzax shahri (**616,8** mlrd so'm), Zomin (**226,9** mlrd.so'm), G'allaorol (**206,0** mlrd. so'm), Zafarobod (**264,2** mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




■ hajmi, mln. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **2945,1** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **99,1** % ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati **103,1** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Baxmal (**3600,6** mlrd. so‘m), G‘allaorol (**3882,8** mlrd. so‘m), Zomin (**2469,7** mlrd. so‘m), Sharof Rashidov (**2746,6** mlrd. so‘m) Do‘stlik (**1974,8** mlrd. so‘m), Zarbdor (**1882,2** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Yangiobod	86,0	99,9
Forish	227,1	97,1
Paxtakor	141,4	99,8
Mirzacho‘l	100,4	97,1
Zafarobod	123,6	99,3
Zarbdor	124,1	96,6
Zomin	384,0	99,2
Do‘stlik	249,3	99,6
Sharof Rashidov	322,0	99,5
G‘allaorol	450,4	99,1
Baxmal	535,2	100
Arnasoy	121,2	100
Jizzax sh.	80,5	99,9


hajmi, trln. so‘mda ——— ↑
ulushi, % da ——— ↑

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **2115,6** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **95,7 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati **107,7 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi


Yangiobod	28,6	99,0
Forish	54,6	99,1
Paxtakor	126,5	99,6
Mirzacho'l	58,2	99,4
Zafarobod	48,8	99,2
Zarbdor	110,7	99,4
Zomin	217,2	85,1
Do'stlik	101,2	99,4
Sharof Rashidov	199,9	98,0
G'allaorol	224,5	96,8
Baxmal	214,1	99,5
Arnasoy	46,5	98,9
Jizzax sh.	684,8	94,6

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (**684,8** mlrd. so'm), G'allaorol (**224,5** mlrd. so'm), Zomin (**217,2** mlrd. so'm), Baxmal (**214,1** mlrd. so'm), Sharof Rashidov (**199,9** mlrd. so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm


hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda




2024- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1776,3** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **63,2 %** ini va o'sish sur'ati **113,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (**574,7** mlrd. so'm), Sharof Rashidov (**310,6** mlrd. so'm), G'allaorol (**171,4** mlrd. so'm), Zomin (**154,3** mlrd. so'm), Baxmal (**138,1** mlrd so'm) va Forish (**95,2** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari





Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **47,1 %** (**342,8** mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **106,9 %** (**14,7** mlrd. so'm), Boshqa xizmatlarda – **12,8%** (**93,3** mlrd. so'm) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida **13,2 %** (**95,9** mlrd. so'm)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **0,2 %**(**1,3** mlrd so'm) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-mart oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **25118,2** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **53,5** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yangiobod	96,4	99,9
Forish	4667,5	100,0
Paxtakor	3066,6	100,0
Mirzacho'l	930,7	45,5
Zafarobod	2043,5	219,6
Zarbdor	3747,0	52,8
Zomin	144,5	8,6
Do'stlik	3,8	0,1
Sharof Rashidov	186,3	100,0
G'allaorol	212,9	12,9
Baxmal	3171,6	100,0
Arnasoy	1720,4	100,0
Jizzax sh.	5098,9	29,5


hajmi, ming. AQSH dollar

ulushi, % da

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Arnasoy, Baxmal, Sharof Rashidov, Paxtakor, Forish – **100,0** %, Yangiobod tumanida – **99,9** %, Zomin tumanida – **83,3** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Do'stlik tumanida – **0,1** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **253,9** million AQSH dollarini yoki jami importning **57,0** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Arnasoy, Baxmal, Do'stlik, Mirzacho'l, Forish, Yangiobod tumanlarida – **100,0** %, tumanida – **97,4** %, Jizzax shahri - **98,4**%, Paxtakor tumanida -**99,6**%, Zomin tumanida – **96,3** % ni tashkil etdi.


Jizzax shahri	98,4
Arnasoy	100,0
Baxmal	100,0
G'allaorol	0,0
Sharof Rashidov	100,0
Do'stlik	100,0
Zomin	96,3
Zarbdor	30,9
Zafarobod	61,3
Mirzacho'l	100,0
Paxtakor	99,6
Forish	100,0
Yangiobod	100,0

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk
tashishda**

2024- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,8 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **102,9 %** ni tashkil qildi.




**Yuk
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,8 %** ni tashkil etgan bo‘lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **102,6 %** ni tashkil qildi.



**Yo‘lovchi
tashishda**

2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,3 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **101,4 %** ni tashkil qildi.




**Yo‘lovchi
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,8 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **100,8 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 717 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 252 (35,2 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 441 (61,7 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 7 (3,1%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 44,6 % (319 ta), xizmatlar sohasida – 20,2 % (133 ta), sanoatda – 10,6 % (87 ta), qurilishda – 9,5 % (68 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 15,1 % (108 ta) ni tashkil etdi.

2024- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

224	Jizzax shahar	94,5
31	Arnasoy	100,0
35	Baxmal	100,0
35	G'allaorol	92,1
99	Sharof Rashidov	100,0
38	Do'stlik	100,0
54	Zomin	98,2
26	Zarbdor	100,0
26	Zafarobod	100,0
19	Mirzacho'l	100,0
43	Paxtakor	100,0
72	Forish	100,0
15	Yangiobod	100,0


Birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (**224** ta), Sharof Rashidov (**99** ta), Forish (**72** ta), Zomin (**54** ta), G'allaorol (**35** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning I choragida **99** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I choragiga kelib esa **252** taga yetgan yoki 2019- yilning I choragiga nisbatan **153** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2019- yilda **231** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-martida **470** ta yoki **239** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilda **79** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **22** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **57** taga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2019 - yilning I choragida **102** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I choragiga kelib esa **269** taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **167** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning I choragida **321** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I choragida **361** ta yoki **40** taga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019- yilning I choragida **41** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning IV choragiga kelib, bu ko'rsatkich **9** tani tashkil etib, **32** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I choragida **40,1** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **37,6** % ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **2,5%** birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilda **59,0** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I choragida **50,3** % yoki **8,7** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilda **0,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **1,6** % ga yetgan yoki **0,7** % ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I choragida **42,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **35,2** % ga yetgan yoki 2019- yilning I choragida nisbatan **7,6** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I choragida **59,0** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-martida **61,7** % yoki **2,7** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilning I choragida **0,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **3,1** % yoki **2,2** % birlikka oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2024- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **50,0** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **15,9** % ni, xizmatlar sohasida – **16,7** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **42,4** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **14,3** % ni, xizmatlar sohasida – **20,2** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda **27,3** % ni, qurilish va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida sohasida – **22,7** % ni, tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **48,2** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **14,2** % ni, va xizmatlar – **16,4** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **40,6** % ni, xizmatlar – **20,9** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **16,2** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **60,0** % ni xizmatlar va qurilish sohasida – **20,0** % ni, tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	28,4	16,2	40,3
Band bo'lganlar soni	16,6	21,3	20,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	17,1	21,2	18,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	15,9	21,7	14,3
Raqobat muhiti	21,9	19,6	6,5

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	28,8	15,5	25,0
Band bo'lganlar soni	15,6	22,2	21,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	18,6	20,7	21,4
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	16,0	22,0	21,4
Raqobat muhiti	21,1	19,6	10,7


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli